

**BAHO VOSITASIDAMAKTAB O'QUVCHILARINI
MA'NAVIY-INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA BAHONING O'RNI**

*Normurodova Nafosat Baxtiyor qizi,
Shoyiqulova To'ygul Hamroyevna
Buxoro viloyati Qorako'l tuman maktab psixologi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ta'lim soxasidagi bugungi tub islohotlar strategiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilar o'quv faoliyatining sifati va samaradorligini nazorat qilish va baholashning o'ziga xosliklari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch atamalar: Ta'lim, bilim, baholash, zamonaviy o'quv-didaktik vositalar, tasviriy materiallar, animatsiya, videolavhalar.

**IN THE EVALUATION TOOL, THE STUDENTS OF AKTAB ARE
THE ROLE OF ASSESSMENT IN SPIRITUAL AND INTELLECTUAL
DEVELOPMENT**

*Normurodova Nafosat Bakhtiyor's daughter,
Shoigulova Tuygul Hamroyevna
Karakol district school psychologist, Bukhara region*

Abstract: This article discusses the current strategy of fundamental reforms in the field of education of the Republic of Uzbekistan, its specific features, the peculiarities of monitoring and evaluating the quality and effectiveness of the educational activities of students studying in higher education.

Keywords: education, knowledge, assessment, modern educational and didactic tools, visual materials, animation, videos.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoyev rahbarligi bilan ta'lim tizimi va mazmunini isloh qilish, uni tubdan yangilash, Yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlaydigan chuqur bilim va malakaga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida jadal va izchillik bilan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda xalqaro dasturlar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganlik darajalarini sertifikatlash, o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, obyektiv baholash orqali o'quvchilarning istiqbolda bajaradigan o'quv harakatlarini rejalashtirish va shu asosda ularning ma'naviy-intellektual taraqqiyot darajalarini

baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish talab qilinmoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bahoning pedagogik-psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarni intellektual-ijtimoiy rivojlantirish dasturlarni tuzishga asos bo'ladigan didaktik parametrlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu ayniqsa, o'quvchilarning o'quv faoliyatini jadallashtirish, kamchiliklarni tuzatish, nazorat qilishning tashkiliy-funksional modelini ishlab chiqish, o'quv faoliyati natijalarining DTSga mosligini ta'minlash, o'quvchilarning tayyorgarlik darajalarini sertifikatlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlarida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga asoslangan «Core Subjects», «German School Academy» kabi dasturlarni qo'llash zarurati paydo bo'ldi.


Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimni baholash deb, o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalarni o'quv predmetlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablari bilan solishtirish orqali belgilash, erishilgan ma'naviy-intellektual darajani aniqlashdir. O'quvchilarning ma'naviy-intellektual rivojlantirishda bahoning didaktik imkoniyati juda ham katta. Xususan, baho pedagogik, falsafiy hamda psixologik mohiyat kasb etib, o'quvchining o'quv hamda ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan tashqi va ichki munosabatini ifodalaydi. Bahoning didaktik imkoniyatlari ham ko'p bo'lib, bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

- o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini jadallashtiradi yoki ijobiy xarakter sari rag'batlantiradi.
- o'quvchining o'z faoliyatidagi yutuq hamda kamchiliklarni anglagan xolda ularni tuzatish hamda buning natijasida ma'naviy-intellektual yuksalish sari undaydi.
- o'quvchi tomonidan istiqbolda o'zi bajaradigan o'quv harakatlarini rejalashtirishga va shu asosda o'zining ma'naviy-intellektual taraqqiyot dasturni tuzishga yo'llaydi.
- o'quvchilarning o'zini shaxsiy harakat dasturi bajarilishini nazorat qilish va mazkur dasturni takomillashtirishga asos yaratadi.

O'quvchining o'quv faoliyatini baholash uning ma'naviy-intellektual darajasi rivojlanishi hamda pedagogik qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan yondashilganda o'quv jarayoninig barcha bosqichlarida nihoyat zarurdir. O'quvchilarni o'quv faoliyati natijasini baholash ularning o'z xato va kamchiliklarini e'tirof etishi, tushunishi, ularning o'z kuchi bilan bartaraf etishiga imkoniyat yaratishini ta'minlaydi. O'quvchi yoshlarni ta'lim jarayonidagi faoliyatlarini baholash orqali o'qituvchi ham o'zining kelajakdagi bajarishi lozim bo'lgan strategik maqsadlarini aniqlaydi va rejalashtiradi.

Talabalarning ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirish jarayoni o'ta murakkab jarayon bo'lib, u o'zida qadriyatli, maylli, kognitiv, xissiy-ixtiyoriy, faoliyatli hamda refleksiv holatlarni mujassamlashtiradi. Shu bilan bir qatorda baho yordamida o'qituvchi o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuzatishi hamda ularning ma'naviy-intellektual taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab olishi mumkin. Baho o'quvchini rag'batlantiruvchi va uning ma'naviy-intellektual darajasi rivojlanishini ta'minlovchi kuchga ham egadir.

Xususan o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ko'proq mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, ularni jismoniy jihatdan rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini egallashga undash, har bir darsda o'quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini taqdim etish va o'zlashtirilgan bilimlarni baholash jarayonida o'quvchilarning ota-onalari, mahalla va o'z-o'zini boshqarish organlarini ham ushbu jarayonga jalb qilish mexanizmi ishlab chiqilgan.



1.1- rasm. Baho - maktab - oila hamkorligini ta'minlovchi vosita.

Raqaqlarda ifodalangan va o'quvchilar mehnatiga qo'yilgan muayyan baho nafaqat fan o'qituvchi uchun muhimdir, chunki o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro g'ayritabiiy munosabat o'quvchilar mehnatiga to'g'ri baho bermaslik natijasida kelib chiqadi. Ammo o'quvchilarning ko'p qirrali bilish faoliyatlarini aynan bitta ball bilan baholash ham mumkin emas. Haqqoniy baho o'quvchi ma'naviy-intellektual faoliyatini boshqarish hamda rivojlantirish imkoniyatiga egadir.

O'tmishda Markaziy Osiyodagi maktablarda balli baholash mavjud bo'lmagan, o'quvchilarga individual tarzda ta'lim berilgan hamda ular muayyan mavzuni o'zlashtirsagina yangi topshiriqni olganlar va "balli", "barakalla", "ofarin" kabi so'zlar bilan rag'batlantirilgan. Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaraolmagan o'quvchilarni jazolashgan. O'quvchilar bilimlarni yaxshi o'zlashtirmasliklarining asosiy sabablaridan biri ularning o'z o'quv faoliyatlari natijalariga to'g'ri baho bermasliklaridadir. Aksariyat hollarda o'quvchilarning o'zlariga bergan baholari, o'qituvchilar ular faoliyatiga bergan baho bilan to'g'ri kelmaydi.

Bugungi kunda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash ko'plab mutaxassislarning e'tiborini o'ziga jalb qilganligi uchun ham bu

sohada keng ko'lamli izlanishlar amalga oshirilib, ular natijasida ko'plab yondashuvlar vujudga kelgan. Xar bir mamlakat ta'lim tizimi o'quvchilar bilimini har tomonlama aniqlash va ularni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan baholash tizimini qo'llashdan manfaatdordir. Shuning uchun ham turli mamlakatlarda turlicha o'ziga xoslikka ega bo'lgan baholash tizimlari amal qiladi.

Xususan rivojlangan mamlakatlarda o'ziga xos baholash tizimi mavjud bo'lib, quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Avstraliyada o'quvchilarning bilimlari so'zlar yordamida baholanib, bu baho o'quvchilardan sir tutiladi va faqat o'qituvchigagina ma'lum bo'ladi, o'qituvchi o'quvchilarni o'zaro qiyoslagan holda ularning iqtidorlari va o'ziga xos jihatlarni aniqlaydilar.

Norvegiya ta'limida 6 balli tizimiga amal qilib, 0.2 – o'rtadan past, 3-4- o'rta, 5-6- o'rtadan yuqori demakdir.

Niderlandiya, Islandiya mamlakatlarida 10 balli baholash tizimi qo'llanilib, 1 ball yomon, salbiy, 10 ball esa a'lo bahoni ifodalaydi.

Finlandiya, Niderlandiya mamlakatlarida 7 ko'rsatkichli baholash tizimi qo'llanilib, 4 ball yomon, 10 ball a'lo ko'rsatkichni ifodalaydi.

Italiya, Ispaniya, Portugaliya kabi davlatlarda besh balli baholash tizimi amal qilib, 1 yomon, 5 ball a'loni anglatadi.

Avstriyada besh balli baholash tizimi mavjud bo'lib, 5 topshirmagan salbiy, 1 ball esa a'loni anglatadi.

Gretsiya ta'lim tizimida esa, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari xarflar yordamida baholanadi. Masalan, D [1-4][10-12,5] – “yetarli yaxshi”, C [5-6][12,5-15,5] – “yaxshi”, B [7-8](15,5 – 18,5) – “juda yaxshi”, A (9-10)(18,5-20)- “a'lo”ni anglatadi. Gretsiyada xarflar yordamida ifodalanadigan 20 ballik baholash tizimi mavjud.

Lyuksemburg, Belgiyada ko'p balli baholash tizimlari qo'llaniladi va o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarining eng past darajasi 30 ball bilan baholanadi.

1.2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarning o'quvchilarni baholash tizimi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitish, ularning ta'lim tizimidagi faoliyatlarini to'g'ri baholash o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini oshirishda, ularning mustaqil ishlash qobiliyatlari va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni -T.: “O'zbekiston”, 2020 yil 23 sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017, 488 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 1-ilovasi, 9- bandi.
4. Умаров Б. Ижтимоий фанларни ўқитиш жараёнида талабаларда ватан тараққиёти ғоясини шакллантириш //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2.
5. O'lmas Q. ta'lim tizimida baholash mazmuni //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Olimov S. Таълимни технологиялаштиришнинг асосий элементи //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
7. Ostonov J.Sh. Coping behavior and its research style. Proceedings of 7th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements// Hosted online from,New york, USA//June 25, 2021. 237-239 b
8. Ostonov J.Sh. Socio-Psychological Basics of The Study of The Styles of Attitude in Coping by. Adolescents Middle european scientific bulletin Volume 13 June 2021. Б. 442-4469.

9. Остонов Ж.Ш. Концепция копинга: определение, функция и виды. Вестник интегративной психологии // - Ярославль, 2020. Выпуск 22. С.279-281
10. Остонов Ж.Ш. Ўсмирларда психологик ҳимоя ва копинг хулқ-атвор омиллари намоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари. *Psixologiya jurnali*. 2021й. 4-son. 66-73 b
11. Остонов Ж.Ш. Факторная структура копинг-поведения подростков. *Психология илмий журнали*. 2020. № 4. Б.47-50
12. Остонов Ж.Ш. Копинг-ресурсы личности и адаптационный потенциал Мактабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар: истиқболлар, муаммолар ва ечимлар Республика масофавий илмий амалий анжумани. БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь Б.297-29914. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги копинг хулқ-атвор ва унинг шахс мувафакқиятидаги ўзаро алоқадорлигининг назарий асослари. Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар // Республика илмий-амалий анжуман 2021 йил 28 май Б.134-135
13. Остонов Ж.Ш. Копинг-стратегии: развитие в онтогенезе. Педагогик маҳорат илмий журнали. Бухоро, 2020. №6 Б.102-104
14. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги энгга олиш хулқ-атворининг асосий стратегиялари. Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар. Республика илмий-амалий анжуман 2021 йил 28 май Б.132-133
15. Остонов Ж.Ш. Ўсмирларда копинг хулқ-атвор омиллари шаклланишининг ижтимоий психологик механизмлари. Тафаккур ва талқин мавзусида // Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами 2021 йил, 27-май Б.817-820
16. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги копинг хулқ-атвор ва унинг шахс мувафакқиятидаги ўзаро алоқадорлигининг назарий асослари. Тафаккур ва талқин мавзусида // Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами 2021 йил, 27-май Б.812-817
17. Мирзаева Д.Ш, Курбанова З.И. Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста. *Scientific progress* 2 (7), 1206-1212
18. Z. Kurbonova. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8.